

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.201.B.02.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

RAJAMURADOVA NURINISO ZAYNITDINOVNA

**YAYLOV OZIQUALARIGA QO'SHIMCHA OZIQLANTIRISHNI
TUVCHALAR ORGANIZMIDAGI ALMASHINUV JARAYONLARIGA
VA OLINGAN ULOQLARNING REZISTENTLIK
KO'RSATGICHLARIGA TA'SIRI**

03.00.08 – Odam va hayvonlar fiziologiyasi

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Rajamuradova Nuriniso Zaynitdinovna

Yaylov oziqalariga qo‘shimcha oziqlantirishni tuvchalar organizmidagi almashinuv jarayonlariga va olingan uloqlarning rezistentlik ko‘rsatgichlariga ta’siri..... 3

Ражамурадова Нуринисо Зайнитдиновна

Влияние дополнительной к пастбищным кормам подкормки на общий обмен веществ первородок, естественной резистентности получаемых от них козлят..... 21

Rajamuradova Nuriniso

The effect of supplemental feeding of rangeland food on metabolic processes in the body of juvenile goats and their resistance indicators..... 39

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 38

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.201.B.02.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

RAJAMURADOVA NURINISO ZAYNITDINOVNA

**YAYLOV OZIQUALARIGA QO'SHIMCHA OZIQLANTIRISHNI
TUVCHALAR ORGANIZMIDAGI ALMASHINUV JARAYONLARIGA
VA OLINGAN ULOQLARNING REZISTENTLIK
KO'RSATGICHLARIGA TA'SIRI**

03.00.08 – Odam va hayvonlar fiziologiyasi

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/B693 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi www.samdu.uz manziliga hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Kuziyev Mirzohid Sadulloyevich**
Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar: **Matchanov Azat Taubaldiyevich**
Biologiya fanlari doktori, professor

Kuchkarova Lyubov Salijanovna
Biologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.02.08 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «01» aprel soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy, Samarqand davlat universiteti Biologiya fakulteti binosi, 2-qavat majlislar zali. Tel.: (+99866) 239-11-40, faks: (+99866) 239-11-40, E-mail: devonxona@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (37 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy, Axborot-resurs markazi. Tel.: (+99866) 239-11-51)).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «18» mart kuni tarqatildi.
(2023-yil «18» mart dagi 35 raqamli reyestr bayonnomasi).



Z.Izzatullayev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

F.Z.Xalimov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.n. dotsent

X.Q.Xaydarov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati: Dunyoning barcha chorvachilik sohasi rivojlangan mamlakatlarida ham sanoat asosida tashkil qilinayotgan komplekslar uchun foydalanilishi kutilayotgan hayvonlar bosh sonini tashkil qilishda yangi muammolar paydo bo‘lmoqda, bular orasida eng muhimi bo‘lib sanoat texnologiyalari sharoitiga moslashgan va turli kasalliklarga chidamli hayvonlar podasini yaratishga va urchitishga asosiy e‘tibor qaratilmoqda. Hayvonlardan sog‘lom avlod olish, ularning hayotchanligini, salomatligini ta‘minlash, ularning bosh sonini hamda mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini saqlab qolish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi, shu boisdan, ularni me‘yoriy ozuqa rasionlar asosida oziqlantirish uchun qulay bo‘lgan sharoit yaratish bilan birgalikda hayotining dastlabki kunidan boshlab ular organizmini tashqi muhitning noqulay omillari ta‘siriga chidamliligini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Jahonning yirik ilmiy markazlarida olib borilayotgan tadqiqotlarda mahsuldor hayvonlar genotipidan foydalanish davomida oziqlantirish, to‘yimli moddalarni o‘zlashtirish xususiyatlarini o‘rganish hisobiga ulardan foydalanishning ilmiy asoslari hamda biologik jihatdan asoslangan texnologik yechimlarini ishlab chiqish va takomillashtirish borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada yangi hududlarga keltirilgan yuqori mahsuldorlik ko‘rsatkichlariga ega hayvonlarning yangi sharoitga moslashish imkoniyatlari oshishiga, mahsuldorlik xususiyatlarini saqlab qolinishiga ozuqa omillarining to‘g‘ri tanlanishi, keltirilgan hayvon bosh sonini, olinadigan mahsulot miqdori hamda sifatli ko‘rsatkichlarini saqlab qolish imkoniyati bilan birga hayvonlarning tabiiy chidamliligini oshirish choralari alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimiz aholisini xavfsiz, to‘la qiymatli echki suti bilan ta‘minlash maqsadida, sut yo‘nalishidagi echki zotlarini jumladan mahalliy aborigen echkilarning sut mahsuldorligini barqaror oshirish uchun, ular hayotida muhim bo‘lgan davrlarda me‘yor darajasidagi oziqlantirish sharoitni tashkil qilish hamda xorijdan keltirilgan sudor echkilarni yuqori mahsuldorlik xususiyatlarini saqlab qolish bo‘yicha muayyan natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida «...mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish»¹ vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, tuvchalarni me‘yor asosida oziqlantirish, iste‘mol qilinadigan to‘yimli moddalar miqdorini optimallashtirish, hazm jarayonlari va tabiiy chidamlilik ko‘rsatkichlarini me‘yorlashtirish hisobiga echkilarning mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va uni ishlab chiqarishga joriy qilish muhim ilmiy amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 martdagi PQ-2841-son “Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo‘shimcha chora-

¹. “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги ПФ-4947-сон фармони.7феврал 2017 йил.

tadbirlar to'g'risida"gi, 2019 yil 18 martdagi PQ-4243-son "Chorvachilik tarmog'ini yanada rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida", 2019 yil 29 iyuldagi PQ- 4406-son "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" va 2020 yil 29 yanvardagi PQ-4576-son "Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining . «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mayda shoxli kavshovchi hayvonlar (jumladan echkilar) organizmining gomeostatik tizimiga oziqaviy omillarning ta'sir mexanizmi va mahsuldorlik xususiyatlariga oid ma'lumotlar xorijiy olimlar V.V.Aboneyev, A.I.Yeroxin, T.I.Sarbasov, M.Yu.Sannikov, B.S.Iolchiyev, A.A. Drovorub, A.S.Shuvarikov, A.M Ombayev va boshqalar tomonidan olib borilgan izlanishlarda qayd qilingan. O'zbekistonda echkichilikni rivojlantirish bo'yicha I.K. Kiyatkin, I.A.Morgulis, Z.T.Rajamuradov, M.S.Quziyev va F.H.Mamadaliyev kabi olimlar tekshirishlar olib borishgan va bu ishlarning aksariyatida turli mahsulot yo'nalishidagi echkilarni urchitish muammolari o'rganilgan. Ammo, xorijiy seleksiyaga mansub echkilarni yil davomida qo'shimcha oziqlantirishsiz yaylovda haydab boqish, to'yimli moddalarning yetishmasligi oqibatida yuzaga keladigan negativ holatlar tufayli echkilar organizmining tabiiy chidamliligiga ta'sir mexanizmlarini o'rganishga yo'naltirilgan ishlar bajarilmagan. Bundan tashqari, yuqoridagi holatlarda yaylov oziqalari tarkibidagi to'yimli moddalarning iste'mol qilish, hazm jarayonlariga, iste'mol qilingan oziqalar tarkibining sog'ib olinadigan sut miqdoriga va olinadigan uloqlar organizmining rezistentligiga ta'sir etish mexanizmlarini o'rganishga oid kompleks izlanishlar olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlar rejasiga muvofiq Bio-01-2021 "Zarafshon vohasida (o'rta oqim) qishloq xo'jaligi hayvonlarining mahsuldorlik ko'rsatgichlarini oshirishning morfo-biokimyoviy va fiziologik jihatlarini" mavzusi doirasida bajarilgan

Tadqiqotning maqsadi mamlakatimizga keltirilgan Zaanen zotli tuvchalarni bug'ozlik va laktasiya davrlarida qo'shimcha oziqlantirishning mahsuldorlik xususiyatlariga va olingan uloqlarining o'sish-rivojlanishiga hamda rezistentligiga ta'sirini baholashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

echkilar boqiladigan yaylovlarning yil fasllari bo'yicha oziqabop o'simliklarning biologik qiymati, iste'mol qilinishi, hazmlanishi va tuvchalar

organizmining to'yimli moddalarga bo'lgan ehtiyojining qondirilishini aniqlash;

tuvchalarni bug'ozlik va laktasiya davrlarida yaylovda iste'mol qilgan oziqa rasionini qo'shimcha oziqalar bilan boyitish bo'yicha oziqlantirishni tashkil qilish va me'yorlashtirilgan rasionni iste'mol qilinishi, hazmlanishi va mahsuldorligiga ta'sirini aniqlash;

qo'shimcha oziqlantirishni tuvchalar qonining leykogrammasiga, limfositlar faolligiga hamda olingan uloqlar qonining leykogrammasi va limfositlar faolligiga ta'sirini aniqlash;

tuvchalar va ulardan olingan uloqlar organizmining tabiiy chidamliligini tavsiflovchi maxsus va maxsus bo'lmagan himoya tizimlari faolliklari tahlil qilish vazifalari qo'yildi..

Tadqiqotning obyekti sifatida xorijdan keltirilgan Zaanen zotli tuvchalar va ularning uloqlari olingan.

Tadqiqotning predmetini birinchi marta tuqqan Zaanen zotli tuvchalar qon zardobining lizosimli va bakteriasidlik faolligi, fagositlar miqdori, sut, qon va qon zardobining namunalari tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni bajarishda umum qabul qilingan zamonaviy fiziologik, morfobiokimyoviy, immunologik, mikrobiologik va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Tog', tog'oldi yaylovlaridagi ozuqabop o'simliklarning to'yimlilik qiymati, mahsuldorligi, tuvchalar organizmining to'yimli moddalarga bo'lgan ehtiyojini qoplanish darajalari aniqlangan;

yaylovda qo'shimcha oziqalarsiz haydab boqilgan tuvchalar katta qornida kechadigan almashinuv jarayonlari, ularni qon tarkibidagi morfo-biokimyoviy va immun tizimlar faolligiga ta'siri ilmiy asoslangan;

tuvchalar bug'ozlik-laktasiya davrlarida yaylov oziqalariga qo'shimcha oziqlantirishning ular organizmidagi maxsus va maxsus bo'lmagan himoya tizimi faolliklari oshganligi ochib berilgan;

uloqlarning o'sishi-rivojlanishi, maxsus va maxsus b'olmagan himoya tizimlarini holati, me'yorida oziqlantirilgan onalarining immun tizimi holati bilan bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bug'ozlik davrida echkilar organizmining to'yimli moddalarga bo'lgan ehtiyojlarini yetarlicha darajada qondirilishi, qo'shimcha oziqlantirilgan tuvchalardan olingan uloqlar organizmining tabiiy rezistentlik ko'rsatgichlarining fiziologik asoslari va qo'shimcha ozuqalar bilan boyitilgan rasiondan foydalanishning umumbiologik jihatlari ochib berilganligi bilan izohlanadi;

tuvchalarning bug'ozlik va laktasiya davrlarida yaylov oziqalaridan iborat ozuqa rasionlarini qo'shimcha ozuqalar bilan boytilishi ozuqalarning iste'mol qilinishini, to'yimli moddalarning hazmlanishini, hayvonlar klinik holatini yaxshilashi va mahsulot birligiga sarflanadigan ozuqalar sarfini kamaytirishi

hamda echkilar maxsuldorlik ko'rsatgichlarini saqlab qolishning optimal me'yorlari ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi, eksperimental tekshirish ishlarini bajarishda zamonaviy biologik usullar va vositalaridan foydalanilganligi, aprobasiya komissiyasi tomonidan eksperimental tajribalar va birlamchi materiallarga ijobiy baho berilganligi, immunologik, fiziologik, biokimyoviy usullar va yondoshuvlar yordamida olingan natijalarni statistik dasturlar yordamida (OriginPro 7.5, Microsoft Office Excel, 2010) tahlil qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati, tadqiqot ishlarini bajarishda foydalanilgan echkilar guruhlari qonining tabiiy chidamlilik ko'rsatkichlarini faollik darajasi irsiyatga nisbatan sifatli oziqlantirish omili bilan ta'min etilishi mumkin ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati olingan uloqlarning bosh sonini saqlab qolish muammosini ijobiy yechimiga erishish uchun zaanen zotli tuvchalarning turg'un-rezistentli individlar seleksiyasiga yangicha yondoshish zarurligi hamda podani to'ldirish va qayta urchitish uchun saralash ishlarini olib borishda bo'lg'usi ona echkilarni tabiiy chidamliligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yaylov oziqalariga qo'shimcha oziqlantirishni tuvchalar organizmidagi almashinuv jarayonlariga va olingan uloqlarning rezistentlik ko'rsatkichlariga ta'siri bo'yicha olingan natijalar asosida:

xorijdan keltirilgan sut yo'nalishidagi echki zotlarini bug'ozlik va laktasiya davrlarida to'yimli moddalarga bo'lgan ehtiyojini qoplash uchun qo'shimcha oziqlantirish, mahsulot birligiga sarflanadigan quruq modda ulushini kamaytirish hamda xo'jalikning rentabellik darajasini oshirish yo'llari Qo'shrabod tumanidagi "Kuragon" fermer xo'jaligi amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasining 2022 yil 7 iyuldagi 02/23-1406-son ma'lumotnomasi). Natijada, echkilar fiziologik holati yaxshilanib, hazm jarayonlarini rag'batlantirilishi va to'yimli moddalarning hazmlanishini ortishi hisobiga har bir bosh xorij seleksiyasiga mansub echkilardan olinadigan sof foydani 9,2% ga oshirish imkonini bergan;

tuvchalarni bug'ozlik va laktasiya davrlarida yaylov rasioniga qo'shimcha ozuqalar bilan oziqlantirish, qo'shimcha oziqlantirishning maxsus va maxsus bo'lmagan himoya tizimi faolliklarini hamda ulardan olingan uloqlarning rezistentlik ko'rsatkichlarini va o'sish-rivojlanishini oshirishning biologik asoslari Nukus tumanidagi "Bekke-Kamal" fermer xo'jaligi amaliyotiga joriy qilingan (Qoraqolpoq Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2022 yil 8 sentyabrdagi 33/01-04-505-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, har bir boshdan olinadigan daromadni, qo'shimcha oziqalarsiz haydab boqilgan nazorat guruhi echkilariga nisbatan 11,3% ga oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Ilmiy tadqiqot ishining natijalari 3 ta halqora va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy – amaliy konfrensiyalarda eshitilgan va muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha 13 ta ish chop etilgan. Shundan O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan 2 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanigan adabiyotlar ro’yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 95 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o’tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi ko’rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Turli ekologik omillar ta’siri ostida mayda shoxli hayvonlar qonining morfo-biokimyoviy, tabiiy chidamlilik va mahsuldorlik ko’rsatgichlariga o’zgarishi”** deb nomlanuvchi birinchi bobida, hayvonlar organizmining tabiiy rezistentligi va uning oshirish yo’llari, tashqi muhitning iqlimiy va oziqaviy omillarining qon va immun tizimlari faoliyatiga ko’rsatadigan ta’siri, me’yori darajasida va me’yorsiz oziqlantirishning hayvonlar leykogrammasiga, tabiiy chidamliligiga ta’siri haqidagi ma’lumotlar keltirilgan. Respublikamiz viloyatlarida sut yo’nalishidagi echki zotlarini o’sish-rivojlanishiga, sut mahsuldorligiga, sutning ayrim xususiyatlariga, maxsus va maxsus bo’lmagan himoya tizimlari holatiga yaylov oziqalariga qo’shimcha oziqalar qo’shib oziqlantirishning ta’siri O’zbekistonda o’rganilmaganligi aniqlandi.


Dissertatsiyaning **«Tadqiqot ob’ektlarining umumiy tavsifi va foydalanilgan uslublar»** deb nomlanuvchi 2- bobida tadqiqot ishlari bajarilgan hududlarning iqlimiy, oziqaviy parametrlari, olib boriladigan tadqiqotlarning tekshirish va tahliliy ishlarining bajarilish tartibi tavsiflangan. Tadqiqot ishining maqsadidan kelib chiqqan holda zaanen tuvchalarini bug’ozlik davridan boshlab, xo’jalik rasionlari va me’yori asosida oziqlantirishning hayvonlar organizmining oziqaviy omillar ta’siriga beradigan javob reaksiyalarini nazorat qilish uchun qator zomonaviy fiziologik va biokimyoviy usullardan foydalanilgan. Tuvchalar tomonidan rasionlar tarkibidagi oziqalarning iste’mol qilinishi, to’yimli moddalarning hazmlanishi va o’zlashtirilish darajalariga, katta qorinda

kechayotgan biokimyoviy, mikrobiologik jararayonlarni, ular organizmining tabiiy chidamlilik xususiyatlarini bug‘ozlik va laktasiya davrlarida yuzaga keluvchi ekstremal sharoitlarning qon va qon zardobini morfo-biokimyoviy ko‘rsatgichlariga, hamda sintezlanadigan sutning miqdoriga va sifatiga ko‘rsatadigan ta‘sirini kuzatish imkonini beruvchi usullar bayon qilingan.

Dissertatsiyaning **“Yil davomida yaylovda haydab boqilgan tuvchalar organizmining to‘yimli moddalarga bo‘lgan talabining qondirilishi va rezistentlik ko‘rsatgichlariga ta‘siri”** deb nomlanuvchi 3-bobida tog‘oldi va cho‘l hududlaridagi tabiiy yaylovlarining yil fasllariga mos holda oziqalarning kimyoviy tarkibi, biologik qiymati va yaylovning mahsuldorligi zamonaviy usullar yordamida aniqlangan.

Mavjud hayvonlar bosh sonini saqlab qolish uchun dastavval mavjud yaylovlar mahsuldorligini, olingan hosil tarkibini tashkil qiluvchi to‘yimli moddalarning miqdori va biologik to‘yimliliği, hayvonlar organizmining to‘yimli moddalarga bo‘lgan ehtiyojini qondirilish darajasi aniqlanishi kerak. Tabiiy yaylovlarning mahsuldorligi – doimiy ko‘rsatgich emas, u yaylov joylashgan hududning tuproq-iqlimiy sharoitiga va yil fasllariga bog‘liq holda doimiy ravishda o‘zgarishga uchraydi. Hisoblash ishlari momiq va jundor echkilarning kunlik oziqlanish normalari bo‘yicha, ular organizmining to‘yimli moddalarga bo‘lgan ehtiyojlarini qoplanish darajalarini aniqlash uchun “Kuragon” fermer xo‘jaligi tasarufigidagi yaylovlarning mahsuldorligi 2 yil mobaynida o‘rganildi.

1-rasmda keltirilgan ma‘lumotlarning tahlil qilish natijasida shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, uncha qulay bo‘lmagan yillari tabiiy yaylovlar ozuqabop o‘simliklarining umumiy mahsuldorligi (s/ga) unchalik yuqori emasligi va bahorda - $1,5 \pm 0,67$, yozda - $2,6 \pm 1,07$, kuzda - $2,3 \pm 0,84$ va qish mavsumida - $0,7 \pm 0,24$ ni tashkil etgan bo‘lsa, qulay kelgan yillari bu ko‘rsatgichlar mos holda - 37,5%; 3 marta; 32,4 va 19,5% ga yuqori bo‘lishi aniqlandi.



1-rasm. Yil fasllariga mos holda, namunaga olingan o‘simliklar tarkibidagi quruq modda bo‘yicha yaylovlar hosildorligi, s/ga.

Tajribalarimizdan olingan natijalarga ko‘ra, tuvchalar tomonidan haqiqatda iste‘mol qilingan yaylov oziqalari bilan bahorda - 0,62 E.O.B., va 109,8 g

hazmlanuvchi protein, yozda - 1.04 E.O.B. va 145,59 g hazmlanuvchi protein, kuzda - 0,52 E.O.B. va 59,06 g hazmlanuvchi protein va qishda- 0,15 EOB, va 25,08 g protein iste'mol qilgan. Keltirilgan raqamlar kech kuz, qish va erta bahorda me'yorda belgilangan ko'rsatkichning (1,35-1,40 E.O.B. va 135-149 g hazmlanuvchi protein) mos holda 15%, 81,0 % va 56,6% ni ololmaydi.

Ozuqalar massasining zahirasidagi oziqalarning miqdori yaylov maydonlarining oziqaviylik imkoniyatini tavsiflab beraolmaydi. Yaylovlardan yanada rasional foydalanish uchun, iste'mol qilingan oziqalarining to'yimlilik qiymatini, hayvonlar organizmi tomonidan hazmlanishini bilish zarur, shu bois yaylov oziqalari tarkibidagi to'yimli moddalarining hazmlanishini aniqlash zarurati kelib chiqdi.

1-jadval

Yaylov oziqalarining to'yimlilik qiymati (M±m, n=5)

1 kg tabiiy namlikdagi o'tlarda saqlanadi	Yil fasllari			
	Bahor	Yoz	Kuz	Qish
Quruq modda,%	30,7	38,3	55,3	60,4
Almashinuvchi energiya,mDj	1,99	2,53,	3,19	3,72
Energiya oziq birligi	0,15	0,17	0,24	0,23
Xom protein,g	28,36	15,63	30,97	27,78
Kalsiy,g	3,9	2,3	5,0	6,9
Fosfor,g	0,7	0,8	0,9	0,9
Oltinugurt,g	0,6	0,7	0,7	0,7
Karotin,mg	21	29	9	4
1 kg quruq moddadagi almashinuvchi energiya, mDj	6,60	6,48	5,77	6,16

2-jadval

Yaylov oziqalarining hazmlanish koeffitsiyentlari, %. (M±m, n=5)

To'yimli moddalar	Yil fasllari			
	Bahor	Yoz	Kuz	Qish
Quruq modda	55,71	58,41	60,91	54,71
Organik moddalar	60,63	62,42	65,97	59,03
Protein	61,23	53,56	49,01	39,45
Yog'	66,17	54,80	69,03	41,91
Kletchatka	62,60	70,29	68,70	64,87
Azotsiz ekstrakt moddalar (AEM)	54,94	54,71	66,54	58,46

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, to'yimli moddalarning eng past ko'rsatgichi erta bahorda kuzatildi, bizning nazarimizda, tog' oldi va yarim cho'l yaylovlarida hayvonlar o'tgan yilgi, lekin nam holidagi katta miqdorda kletchatka saqlovchi (40% dan ortiq) va kam miqdorda protein (7,81%) saqlovchi ozuqalarni iste'mol qilgan bo'lishi mumkin.

Bahor faslidagiga nisbatan yoz faslida ozuqalar tarkibidagi quruq, organik moddalar va kletchatkaning (muvoqif ravishda 58,41; 62,42 va 70,29%) hazmlanishi ortgan bo'lsa, protein va yog'ning (muvoqif ravishda 12,5% va 17,2% ga) hazmlanishini pasayishi ko'zatildi. Yoz faslida to'yimli moddalarning hazmlanishini ortishi bizning nazarimizda, tog'oldi yaylovlaridagi oziqabop o'simliklar o'zining oziqaviylik qiymati bilan yarim cho'l yaylovlari o'simliklarining oziqaviylik qiymatidan yuqoriligidan dalolat beradi.

Shuni qayd qilishimiz kerakki, tog' o'simliklari tarkibida katta miqdorda qand moddasini saqlasada, ammo ayrim mikroelementlar va fosforni kam saqlashi bilan ajralib turadi.

Kuz mavsumi yaylovlari oziqalarini ayrim to'yimli moddalarning hazmlanish koeffitsiyenti yetarlicha yuqori bo'ldi: quruq modda - 60,91%, organik modda - 65,97%, yog' - 69,03 va AEM - 66,54% ni tashkil etgan bo'lsa, ammo proteinning (49,01%), va kletchatkaning (68,70%) hazmlanishi yozgi mavsumga nisbatan pasaydi. Yaylov ozuqalari to'yimli moddalarning hazmlanish koeffitsiyentining sezilarli darajada boshqa mavsumlardagiga nisbatan past bo'lishi aniqlandi. Bizning nazarimizda, bunday holatning yuz berishiga asosiy sabab yaylovdagi ozuqalar faqat o'simliklar qoldiqlaridan iborat bo'lishi va ular tarkibidagi fosforni jiddiy darajada past bo'lishi mumkin. Chunki, ichakning shilliq pardasi hujayralari orqali yog'ning va boshqalarning surilishi faqat fosfor kislotasining ishtirokida bajariladi.

Kuz va qish mavsumlariga kelib esa hazmlangan to'yimli moddalarning miqdori oldingi mavsumlarga nisbatan keskin kamayganligini ko'zatdik. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilish asosida shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, qish mavsumida yaylov oziqalari tarkibidagi to'yimli moddalarning past darajada bo'lganligi bois, kunlik iste'mol qilingan to'yimli moddalarning miqdori minimumgacha pasayadi va shunga paralel ravishda to'yimli moddalarning miqdori ham kamaydi.

Dissertatsiyaning **“Dalada haydab boqiladigan bug'oz tuvchalar rasionini qo'shimcha oziqalar bilan boyitilishining hayvonlar organizmidagi moddalar almashinuviga, tabiiy chidamliligiga va olingan uloqlar immun statusiga ta'siri”** deb nomlanuvchi 4-bobida iste'mol qilingan yaylov ozuqalariga mos holdagi qo'shimcha oziqalar bilan to'ldirilishi tufayli tuvchalar organizmida yuz beradigan morfo- biokimyoviy va immunologik jarayonlarning kechishi tahlil qilingan.

Bundan tashqari, ulardan olingan og'iz sutining fizik kimyoviy xususiyatlari va uloqlar organizmining maxsus va maxsus bo'lmagan himoya tizimlari faoliyatiga ta'siri ilmiy jihatdan baholangan va tahlil qilingan.

Tajribalarning chizmasi

Guruhlar	Tajribadagi tuvchalar	Rasion
Nazorat	50	Yaylov ozuqalari
Tajriba	50	Yaylov ozuqalari + 250 g maydalangan makkajo'xori.doni + 500 g dan beda pichani + 500 g bug'doy somoni

Ilmiy ishlab chiqarish tajribalari Qo'shrabot tumani "Kuragon" fermer xo'jaligida 2,5 yoshli zaanen zotli tuvchalarda 2019 va 2020 yillarning oktyabr va mart oylari mobaynida yuqoridagi chizma asosida olib borildi. Tajriba guruhidagi tuvchalarning xo'jalik rasioniga qo'shimcha ravishda 0,5 kg sifatli beda pichani va 0,5 kg bo'g'doy somoni va 250 g dan maydalangan makkajuxori doni bilan oziqlantirildi.

Yaylovdan esa echkilar asosan, o'tgan yilgi kam miqdordagi to'yimli moddalar saqlanuvchi shuvoqlar, baliq ko'z va keyreuklarning qurigan poyalaridan iborat yaylov oziqalari bilan oziqlanishdilar, lekin, shuni ta'kidlashimiz lozimki qo'shimcha rasiondan foydalanish echkilarni yaylov oziqalaridan foydalanmaslikga olib keldi.

Nazorat guruhi echkilar haqiqiy iste'mol qilingan ozuqalar miqdoriga ko'ra, tajriba guruhi echkilariga nisbatan 24,4% quruq moddani kam iste'mol qilishgan. Iste'mol qilingan ozuqalar faqatgina yaylov oziqalaridan iste'mol qilinganligini qayd etamiz

Tajriba guruhi echkilariga nisbatan nazorat guruhi echkilar tomionidan iste'mol qilingan almashinuvchi energiyaning miqdori 20,49%, energetik oziqa birligi -30,87% va hazmlanuvchi protein bo'yicha 46,16% ga kam bo'lishi haqidagi ma'lumotlarni oldik


3-jadval

Echkilar tomonidan haqiqatda iste'mol qilingan to'yimli moddalarning miqdori, (M±m, n=5)

Ko'rsatgichlar	Guruhlar	
	Nazorat	Tajriba
Iste'mol qilingan quruq modda, kg	0,935	1,237
Shu jumladan: Yaylov oziqalari	0,935	0,490
Pichan va somon aralashmasi, kg.	-	0,528
Makkajuxori doni, kg.	-	0,219
Almashinuvchi energiya, mDj.	6,6	8,3
Energiya oziqa birligi	0,56	0,81
Xom protein, g.	80,76	123,03
Hazmlanuvchi protein, g.	42	78
Xom yog', g.	23,19	33,19
Xom kletchatka, g	377,65	338,9
AEM, g.	352,6	444,14

Muvozanat tajribalaridan olingan ma'lumotlarga ko'ra, to'yimli moddalarning hazmlanish koeffitsiyentlari aniqlandi.

2-rasmda keltirilgan ma'lumotlarning ko'rsatishicha, to'yimli moddalarning hazmlanish koeffitsiyentlari tajriba guruhi tuvchalarida ancha yuqori ekanligi va u quruq hamda organik moddalar bo'yicha mos holda - 9,7%, -10,8% ga, protein - 11,4, yog' - 2,8 va AEM - 11,6% ga ortiq ekanligi qayd qilingan bo'lsa, kletchatkaning hazmlanishi esa nazorat guruhi echkilarida esa 4,4% ga yuqori ekanligi aniqlandi.



2-rasm. Tuvchalar organizmida iste'mol qilingan to'yimli moddalarning hazmlanish koeffitsiyenti,%. (M±m, n=5)

To'yimli moddarning hazmlanishidagi bunday farqlar, bizning nazarimizda tajriba guruhi echkilari rasionidagi, ayniqsa qo'shimcha rasion tarkibidagi to'yimli moddalarning yetarlicha bo'lganligidan dalolat beradi. Beda va somon aralashmasi bilan oziqlantirilganida echkilar asosan yumshoq va yengil hazmlanuvchi qismlarini tanlab iste'mol qilganligi qayd etildi.

Tuvchalarning qishki rasioniga qo'shimcha ravishda dag'al va konsentrat oziqalarning qo'shilishi natijasida, nazorat guruhidagiga nisbatan, tajriba guruhi hayvonlari rasioni tarkibidagi xom proteinning miqdorini ortishini va katta qorin massasidagi umumiy azotning konsentratsiyasini ortishiga olib keldi.

5-jadval

Echkilar katta qorinidagi moddalar almashinuvi ko'rsatgichlari. (M±m, n=5)

Ko'rsatgichlar	Guruhlar	
	Nazorat	Tajriba
Azot: umumiy azot, mg%.	88,8±11,71	195,8±13,14
oqsilli,mg%.	54,3±12,63	135,4±11,80
oqsilsiz,mg%.	34,5±10,70	60,2±12,60
ammiak,mg%.	10,01±0,51	18,3±0,81
Uchuvchi yog' kislotalari (UYoK),g/ekv/ml.	9,1±1,17	9,8±0,70
Sirka,%.	51,3±3,17	57,2±2,10
Propion,%.	30,3±0,91	31,4±1,01
Moy,%.	18,4±1,9	11,4±0,91

Izoh.P<0,01

5-jadvaldagi ma'lumotlariga ko'ra, tuvchalar rasioniga konsentratli oziqalarning qo'shilishi oziqalar proteinining yaxshi va yengil parchalanishini va katta qorinda mikrobial oqsillar sintezlanishini yaxshilanishini imkonini yaratdi, shu boisdan tajriba guruhi echkilari katta qorinidagi suyuqlik tarkibidagi oqsilli azotning konsentratsiyasi, nazorat guruhidagi 54,3±12,63mg% o'rniga 135,4±11,80mg% ni tashkil etdi yoki deyarlik 2,5 barobarga ortiqdigi aniqlandi.

Har ikkalala guruhda tuvchalar katta qorin suyuqligi tarkibidagi uchuvchi yog‘ kislotalarining umumiy miqdori deyarlik bir xil ($9,1 \pm 1,17$ g/ekv/l va $9,8 \pm 0,70$ g/ekv/l) bo‘lishi ko‘zatildi. Qiyoslanayotgan tuvchalar katta qorin suyuqligidagi UYOK ning fraksiyalarining ulushi ham fiziologik norma chegarasida bo‘lishi lekin, sirka kislotasining UYOK umumiy miqdoridagi ulushi nazorat guruhi tuvchalarida anchagina past (5,9% ga) ekanligi, bu o‘zgarish moy kislotasining ulushi kamayishi (7,0% ga) hisobiga esa tajriba guruhi tuvchalar sirka kislotasining ulushi ortganligi aniqlandi.

Organizmning hujayraviy himoya omillaridan biri bo‘lib fagositoz jarayoni hisoblanadi, fagositoz - bu hayvonlar tanasiga tushgan begona qismlarni, shu jumladan mikroorganizmlarni ham ushlab olish qobiliyati va ularni hazmlanishi bilan namoyon bo‘luvchi organizmning tug‘ma reaksiyasidir.

Fagositozning xususiyatlaridan yana biri, fagositar aktning maxsusligiga qaramasdan, fagositlar, jumladan makrofaglar antigenlarni tayyorlashda va ularni immunogen shakllarini qayta ishlashda, immun javobni yuzaga kelishi uchun zarur bo‘lgan antigen - reaktiv T- va V-limfositlar kooperasiyasida ishtirok etadi. Qon tarkibidagi, limfositlarning kam miqdorda saqlanishi spesifik immun tizimlar faolligini kamayishini ko‘rsatsa, yuqori miqdorda bo‘lishi esa ularni faol mobilizatsiyasini ko‘rsatadi. Hayvonlar organizmining immunobiologik holatini baholashda leykositlar va limfositlarning bir biriga bo‘lgan nisbatini bilish juda muhim.

6-jadval.

Qo‘shimcha ozuqalar bilan oziqlantirishning tuvchalar leykogrammasiga ta’siri, ming/mm³, (M±m, n=5).

Ko‘rsatgichlar	Nazorat		Tajriba	
	Tuqqanidan keyinoq	Bir kun o‘tgach	Tuqqanidan keyinoq	Bir kun o‘tgach
Leykositlar	$7,40 \pm 0,07$	$7,37 \pm 0,09$	$7,70 \pm 0,06$	$7,37 \pm 0,09$
Eozinofillar	$0,14 \pm 0,01$	$0,21 \pm 0,02$	$0,30 \pm 0,03$	$0,30 \pm 0,03$
Neytrofillar;				
Umumiy miqdori,	$3,03 \pm 1,1$	$2,97 \pm 1,2$	$2,30 \pm 1,1$	$2,16 \pm 0,9$
Tayoqchayadroli	$0,33 \pm 0,3$	$0,27 \pm 0,2$	$0,20 \pm 0,2$	$0,16 \pm 0,1$
Segment yadroli	$2,70 \pm 0,25$	$2,70 \pm 0,3$	$2,10 \pm 0,21$	$2,0 \pm 0,2$
Limfositlar	$3,90 \pm 0,35$	$3,90 \pm 0,4$	$4,83 \pm 0,5$	$4,70 \pm 0,4$
Monositlar	$0,33 \pm 0,3$	$0,29 \pm 0,3$	$0,27 \pm 0,3$	$0,21 \pm 0,2$

Izoh. Barcha tajriba namunalarda nazorat namunalarga nisbatan $R < 0,01$

Leykositlar - limfositli indeks nazorat guruhi tuvchalari tuqqanidan keyinoq va bir kun o‘tganidan keyin 1,90 va 1,89 ni tashkil etgan bo‘lsa, nazorat guruhida esa mos holda 1,59 va 1,57 ni tashkil etdi. Qon tarkibidagi leykositlar miqdori, fiziologik norma chegarasida bo‘lsayu, limfositlar miqdori ortsa, unda leykositlar: limfositli indeks pasayadi. Indeks qanchalik past bo‘lsa, rezistentlik shuncha yuqori, va aksincha indeks qanchalik yuqori bo‘lsa, rezistentlik shuncha past deyish qabul qilingan. Jadvalda keltirilganlardan shunday xulosa chiqarishimiz mumkin, tajriba guruhidagi tuvchalarning immunobiologik statusi nazorat guruhidagi tuvchalarnikidan jiddiy darajada yuqori bo‘lishidan dalolat beradi.

Nazorat guruhi tuvchalari qonidagi neytrofillarning umumiy miqdori tuqqanidan keyin va undan bir kecha kunduz o'tganidan keyin 0,73 g/l va 0,81 g/l ni tashkil qildi, bu esa tajriba guruhi hayvonlarinikidan mos holda 5,6 % va 5,5 % ga yuqori.

Shuni qayd qilish joizki, nazorat guruhi tuvchalari qonidagi neytrofillarning umumiy miqdorining ortishi, leykositlar miqdorining kamayishi hisobiga yuz berdi.

Limfositlar miqdorining kamayishi bilan birgalikda neytrofillarning miqdorini ortishi ularning nisbatini o'zgartiradi, qaysiki immun tizimning maxsus va maxsus bo'lmagan zvenolarini o'zaro, munosabatini aks ettiradi. Ma'lumotlarimizni ko'rsatishicha nazorat guruhi tuvchalari qonidagi leykositlar indeksi tajriba guruhidagidan 1,6 martaga kam, bu esa bizga nazorat guruhi hayvonlaridagiga nisbatan maxsus immun tizimining faolligini tajriba guruhidagi tuvchalarnikidan 1,6 marta past deb hisoblashimizga imkon beradi.

7-jadval

Tajribadagi tuvchalardan yangi tug'ilgan uloqlar qonining leykogrammasi, ming/mm³. (M±m, n=5)

Leykositlarning turlari		Nazorat		Tajriba	
		Og'iz suti emgungacha	Bir kun o'tgach	Og'iz suti emgungacha	Bir kun o'tgach
Leykositlarning umumiy miqdori		7,90 ± 0.09	8,20 ± 0.09	7,70 ± 0.06	7,60 ± 0.05
Neytrofillar	Umumiy miqdori	5,15 ± 1.1	5,27 ± 1.0	4,00 ± 1.41	3,79 ± 1.3
	Yoshhujayra	0,09 ± 0.1	0,12 ± 0.1	0,03 ± 0.02	0,01 ± 0.01
	Tayoqchayadroli	1,76 ± 0.2	1,62 ± 0.1	0,47 ± 0.5	0,50 ± 0.6
	Segmentyadroli	3,30 ± 0.3	3,53 ± 0.4	3,50 ± 0.3	3,28 ± 0.3
Limfositlar		2,60 ± 0.2	2,74 ± 0.25	3,08 ± 0.2	3,16 ± 0.2
Monositlar		0,15 ± 0.1	0,19 ± 0.1	0,36 ± 0.4	0,39 ± 0.4

Izoh. $R < 0,01$

Organizmning chidamliligi qancha past bo'lsa, neytrofilli indeks shuncha yuqori bo'ladi. Nazorat guruhi tuvchalari qonidagi eozinofillarning mutloq va nisbiy miqdorlari, tuvchalar tuqqanidan keyin va bir kun o'tgach, tajriba guruhidagi tuvchalarga nisbatan 1,4 va 2,0 martaga kam bo'lishi aniqlandi, bu esa immunoglobulinlar faolligini ancha past bo'lishidan dalolat beradi. Analogik ma'lumotlar monositlarning miqdori bo'yicha ham olindi.

Qon tarkibidagi leykositlarning miqdori organizmning maxsus bo'lmagan himoya tizimlari holatini o'zida aks ettiradi. Olingan ma'lumotlarni qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhi uloqlari qonidagi limfositlarning miqdori og'iz suti qabul qilishgacha va og'iz suti emganidan keyin bir kun o'tgach nazorat guruhi uloqlari qonidagiga nisbatan 0,42 g/l va 0,48 g/l yoki 7,1 % va 8,2 % ga yuqori bo'lishi aniqlandi.

Limfositlar organizm himoya tizimining asosiy zvenosi hisoblanib himoya antitanalarini sintezini, begona hujayralarning lizisini amalga oshiradi, immun xotirani kuchaytiradi va toksinlarni ushlab qolish rolini bajaradi. Shu bois,

limfositlarning nisbiy va mutloq ko'rsatgichlarini aniqlash, immun tizimining holatini baholash imkonini beradi.

Hayvonlarning maxsus va maxsus bo'lmagan himoya tizimlarini o'rganishda faqatgina leykositlar va limfositlar miqdorini bilishgina muhim bo'lmay balki ularni bir biriga bo'lgan nisbatini ham bilish zarur.

Olib borilgan tahlillarni ko'rsatishicha nazorat guruhidagi uloqlar qonining leykositlar – limfositlar indeksi tajriba guruhi uloqlari qonidagidan 1,2 martaga yuqori ekanligi aniqlandi.

Nazorat guruhidagi uloqlar qonining neytrofilli indeksini o'rganish shuni ko'rsatdiki, neytrofillarning voyaga yetmagan turlari, ya'ni yosh va tayoqcha yadroli neytrofillarning turlari, og'iz suti emgunga qadar 4 marta va og'iz suti emganidan keyin tajriba guruhi uloqlari qonidagiga nisbatan 3 marta ortiq bo'lishini ko'rsatdi.

8-jadval

Uloqlar tug'ilganidan keyin qoni tarkibidagi spesifik bo'lmagan himoya omillarining ko'rsatgichlari. (M±m, n=5)

№	Ko'rsatgichlar	Guruhlar	
		Nazorat	Tajriba
1	Baterisid faollik %	14,7 ± 1.31	19,6 ± 1.51
2	Fagositar faollik %	33,4 ± 0.37	34,1 ± 0.48
3	Fagositar son, bir.	1,94 ± 0.04	2,25 ± 0.05
4	Fagositar jadallik, bir.	2,11 ± 0.07	2,98 ± 0.06

Izoh. R<0,01

Yangi tug'ilgan uloqlarning fagositar faolligini tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, yaylov oziqalariga qo'shimcha oziqlantirilgan tuvchalardan olingan uloqlar qonida, tug'ilganidan keyin, ya'ni og'iz suti emguniga qadar fagositar faollik 31,4% doirasida bo'ldi.

Nazorat guruhi uloqlari qonida esa ushbu ko'rsatgichlar og'iz suti emguniga qadar va emganidan keyin, o'zaro mos holda 23,4% va 22,5% ni tashkil qildi yoki 0,9% ga kamaydi.

Tajriba guruhi uloqlari qonining fagositar faolligi og'iz suti emguniga qadar 3,0% ni tashkil etgan bo'lsa, og'iz suti emganidan keyin 10,9% ga nazorat guruhi uloqlari fagositar faolligidan yuqori bo'lishi aniqlandi. Demak, tajriba guruhi uloqlari qonining fagositlari bilan 31,4 % va 33,4 % bakteriyalar parchalanadi va yutiladi, nazorat guruhida esa bu ko'rsatgich mos holda 23,4 % va 22,5 % ga teng. Yaylovda haydab boqilgan tuvchalardan olingan uloqlar organizmi past darajadagi immunobiologik himoyaga egadirlar, bu esa ular qonining past darajadagi fagositar faolligi bilan o'z tasdig'ini topdi.

Olingan natijalarni ko'rsatishicha tajriba guruhi uloqlari qonidagi bitta leykosit bilan yutilgan bakteriyalar soni, og'iz suti emguniga qadar 2,25 birlikni tashkil qilgan bo'lsa, tug'ilganidan keyin bir kun o'tgach ularning soni 2,51 birlikga ortdi.

Og'iz suti emguniga qadar va emganidan keyin tajriba guruhi uloqlari qonining fagositar soni bo'yicha farqlar 0,26 birlik chegarasida bo'ldi. Nazorat

guruhi uloqlari qonidagi bitta leykosit bilan yutilgan bakteriyalarning o'rtacha soni, og'iz suti emguniga qadar va bir kun o'tganidan keyin o'rtacha 1,94 va 2,36 birlik atrofida bo'ldi. Nazorat guruhi uloqlari qonidagi og'iz suti emguniga qadar va bir kecha kunduz o'tgach keyin fagositar sonlar orasidagi farq 0,32 birlikga teng bo'ldi.

Tajriba guruhi uloqlari qoni leykositlari bilan yutilgan bakteriyalarning o'rtacha soni, og'iz suti emguniga qadar va og'iz suti emganidan keyin bir kun o'tgach 0,31 va 0,25 birlikni tashkil qildi, bu esa nazorat guruhiga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi.

Hayvonlar organizmining rezistentligini baholashda va immunobiologik holatini bashorat qilishda, ularning qon zardobining bakteriosidlik faolligini aniqlash ham zarur.

9-jadval

Og'iz suti emganidan keyin uloqlarning maxsus bo'lmagan himoya omillarining ko'rsatgichlari. (M±m, n=5)

№	Ko'rsatgichlar	Guruhlar	
		Nazorat	Tajriba
1	Bakterisid faollik, %.	23,7±1,13	31,9±1,43
2	Fagositar faollik %	22,5±0,36	33,4±0,59
3	Fagositar son, bir.	2,26±0,07	2,51±0,02
4	Fagositar jadallik, bir.	2,35±0,08	3,7±0,06

Izoh.P<0,01

Bu holatni eng avvalo qonning bakteriosidlik faolligining o'zgarishini, leykositlarning immunobiologik faolligining pasayishi natijasi deb qarash mumkin. Bu esa, hayvonlarni tashqi muhitning o'zgaruvchan sharoitlari ta'siriga qarshi kurasha olish qobiliyatining past ekanligidan dalolat beradi.

Tuvchalar organizmining rezistentligini shakllanishida va turg'unligida leykositlarning bakteriosidlik faolligini aniqlovchi rolini hisobga olgan holda yangi tug'ilgan uloqlar qonining bakteriosidlik faolligini aniqladik. Tekshirishlarimiz shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhi tuvchalarining qon zardobini bakteriosidlik faolligini og'iz suti emguniga qadar va uni emganidan keyin bir kun o'tgach 19,6% va 31,9% ni tashkil qildi, yani qo'shimcha rasion bilan oziqlantirilgan tuvchalardan olingan uloqlar qonining bakteriosidlik faolligi bir kundan keyin 12,3% ga ortdi.

Xo'jalik rasioni bilan oziqlantirilgan tuvchalardan olingan uloqlar qonining bakteriosidlik faolligi og'iz suti emguniga qadar va emganidan bir kun o'tgach o'zaro mos holda 14,7% va 23,7% atrofida bo'ldi.

Demak, og'iz suti emguniga qadar va og'iz suti emganidan keyin bir kun o'tgach uloqlar qonining bakteriosidlik faolligidagi farq 90% ni tashkil qildi. Hisob – kitoblarimizning ko'rsatishicha, og'iz suti iste'mol qilguniga qadar va iste'mol qilganidan keyin bir kun o'tgach nazorat guruhi uloqlari qonining bakteriosidlik faolligi tajriba guruhi uloqlaridan 4,9% va 8,2% ga past bo'lishi ko'zatildi.

Ma'lumki organizmning maxsus bo'lmagan himoya omillari organizm chidamliligini muhim ko'rsatgichlaridan hisoblanadi, aynan: qonning fagositar va bateriosidlik faolligi qancha yuqori bo'lsa organizmning turli kasalliklarga chidamliligi shuncha yuqori bo'ladi va aksincha. Shu bilan birga organizmning himoya omillari maxsus bo'lmagan immun tizimda to'liq aks etadi, fagositoz qanchalik faol bo'lsa, maxsus immunitet shunchalik aniq namoyon bo'ladi.

Nazorat guruhi ulloqlarida og'iz suti emguniga qadar maxsus bo'lmagan himoya omillarining yetarlicha bo'lmasligini, qiymatsiz rasion bilan oziqlantirilgan echkilar organizmining immunobiologik holatining ancha past bo'lganligi bilan tushuntiramiz.

Bu ona echkilardan olingan ulloqlar kam miqdorda yetilgan va katta miqdorda yetilmagan yosh neytrofillarni saqlaydi, bu esa o'z navbatida neytrofillarning fagositar va bateriosidlik faolligini pasaytiradi va nihoyat ulloqlar og'iz suti emguniga qadar himoyaning maxsus bo'lmagan omillarini to'xtatadi.

Nazorat guruhi ulloqlarida to'g'ilganidan keyin og'iz suti emganidan keyin bir kun o'tgach himoyaning maxsus bo'lmagan omillarini yetarlicha og'iz sutining to'la qiymatli bo'lmaganligi sababdir. Og'iz sutining tarkibidagi leykositlarning konsentrasiyasi qanchalik ko'p bo'lsa, ular shunchalik ko'p ulloqlar organizmiga tushadi, demak ularning chidamliligi shuncha yuqori bo'ladi.

XULOSALAR

“Yaylov oziqalariga qo'shimcha oziqlantirishni tuvchalar organizmidagi almashinuv jarayonlariga va olingan ulloqlarning rezistentlik ko'rsatgichlariga ta'siri” mavzusidagi dissertatsiya ishi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar olindi:

1. Iqlimiy jihatdan qulay bo'lmagan yillari tabiiy yaylovlarning umumiy mahsuldorligi (s/ga) mos holda; - bahorda - $1,5 \pm 0,67$, yozda - $2,6 \pm 1,07$, kuzda - $2,3 \pm 0,84$ va qishda - $0,7 \pm 0,24$ ni tashkil etadi. Yaylov oziqalari bilan iste'mol qilingan ozuqalar bo'yicha kech kuz, qish va erta bahorda belgilangan me'yorning mos holda 15%, 81,0% va 56,6% ni ololmaydi.

2. Uloqlarni fiziologik holatlarini o'zgarishi bilan ular organizmining to'yimli moddalarga bo'lgan talabi ham o'zgaradi boradi, yaylov oziqalari bilan oziqlangan echkilar organizmining to'yimli moddalarga bo'lgan ehtiyojlari; kuyikish oldidan – bug'ozlik va laktasiya davrlarida 85%, 19,0% va 43,4% ga qondiriladigan.

3. Tuvchalar organizmining bug'ozlik davridagi rasion tarkibidagi to'yimli moddalar yetishmasligini qoplash uchun, yaylovdan iste'mol qilingan oziqalarni miqdori va tarkibiga mos holda qo'shimcha oziqlantirishni bug'ozlik davrining boshlanishidan tashkil qilish maqsadga muvofiq.

4. Faqat yaylov oziqalari bilan oziqlantirilgan tuvchalarning immun tizimining faolligi pasayib, limfositlar miqdori kamayib neytrofillar miqdori ortadi va leykositlarning limfositlarga bo'lgan nisbati yuqori bo'ladi.

5. Faqat yaylov oziqalari bilan oziqlangan tuvchalardan olingan uloqlarni maxsus himoya tizimining faolligini pastligi hattoki og‘iz suti emganidan keyin ham yaqqol kuzatildi (limfositopeniya, monositopeniya va eozinofillarning bo‘lmasligi bilan tasdiqlanadi).

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.В.02.08 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

РАЖАМУРАДОВА НУРИНИСО ЗАЙНИТДИНОВНА

**ВЛИЯНИЕ ДОПОЛНИТЕЛЬНОЙ К ПАСТБИЩНЫМ КОРМАМ
ПОДКОРМКИ НА ОБЩИЙ ОБМЕН ВЕЩЕСТВ КОЗ ПЕРВОКОТОК И
ЕСТЕСТВЕННУЮ РЕЗИСТЕНТНОСТЬ ПОЛУЧАЕМЫХ ОТ НИХ
КОЗЛЯТ**

03.00.08 – Физиология человека и животных

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Самарканд – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Кабинете Министров Республики Узбекистана за номером В2022.1.PhD/В693.

Диссертационная работа выполнена в Самаркандском Государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.samdu.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Кузиев Мирзохид Садуллоевич
доктор философии по биология (PhD), доцент

Официальные оппоненты Матчанов Азат Таубалдиевич
доктор биологических наук, профессор
Кучкарова Любовь Салижановна
доктор биологических наук, профессор

Ведущая организация: Каршинский государственный университет

Защита диссертации состоится «01» апреля 2023 года в «10⁰⁰» часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.В.02.08 при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова. (Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, дом 15. Актовый зал факультета биологии Самаркандского государственного университета. Тел.: (+99866) 239-11-40; факс (+99866) 239-11-51; E-mail: devonxona@samdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова (зарегистрирован под номером 37). Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, дом 15. Центр информационных ресурсов. Тел: (+99866) 239-11-51.

Автореферат диссертации разослан «18» марта 2023 года.
(Реестр протокола рассылки № 35 от «18» марта 2023 года).



З.Изатуллаев
Председатель научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.б.н., профессор

Ф.З.Халимов
Ученый секретарь научного совета
по присуждению учёных степеней,
к.б.н. доцент

Х.К.Хайдаров
Председатель научного семинара при научном
Совете по присуждению учёных степеней,
д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотации диссертации доктора (PhD) философии)

Актуальность и востребованность темы диссертации: Во всех странах мира с развитым животноводством возникают новые проблемы в организации поголовья животных, предназначенных для использования в промышленных комплексах, среди которых важное внимание уделяется к созданию и разведению животных, адаптированных к промышленным технологиям и устойчивых к различным заболеваниям. Получение здорового потомства от животных, обеспечение их жизнеспособности, здоровья, сохранение их поголовья и высокой продуктивности является одним из приоритетных направлений, поэтому, наряду с созданием благоприятных условий для их кормления и ухода за ними, целенаправленное формирование устойчивости к воздействию неблагоприятных факторов внешней среды начиная с первых дней жизни имеют важное значение.

В крупнейших мировых научных центрах основное внимание уделяется научно-исследовательским работам, направленные на разработку и усовершенствование, а также внедрение в производство биологически обоснованные технологические решения за счёт изучения особенностей питания, использования и усвоения питательных веществ в период использования продуктивных генотипов животных. В частности, признано, что для повышения возможностей адаптации к новым условиям высокопродуктивных животных, завезенных в новые районы, правильный подбор фактора питания увеличивает возможности повышения поголовья животных, количества и качества получаемого продукта с целью сохранения продуктивных показателей, кроме этого также позволяет повышение естественной резистентности животного организма в новых условиях

В целях обеспечения населения нашей страны безопасным, полноценным козьим молоком, отдельное внимание уделяется устойчивому повышению молочной продуктивности пород коз, молочного направления, в том числе местных аборигенных коз, созданию нормальных условий в важные периоды их жизни, а также сохранение высокой продуктивности, завезенных из-за рубежа молочных коз. Стратегией действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан поставлены задачи «...дальнейшего укрепления продовольственной безопасности страны, расширения производства экологически чистой продукции»². Исходя из этих задач, нормированное кормление коз-первокоток, оптимизация количества потребляемых питательных веществ, регулирование процессов пищеварения и показателей естественной выносливости, за счет которых повышается продуктивность коз, улучшение качества продукта и внедрение его в производство имеет важное научное и практическое значение.

Данное исследование в определенной степени послужит реализации задач, поставленных в Постановлениях Президента Республики Узбекистан

²Указ Президента Республики Узбекистан «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан». № УП-4947 от 7 февраля 2017 года

№ПП-2841 от 16 марта 2017 года «О дополнительных мерах по углублению экономических реформ в животноводстве», №УП-4243 от 18 марта 2019 года «О мерах по дальнейшему развитию и поддержке животноводческой отрасли», №ПП-4406 от 29 июля 2019 года «О дополнительных мерах по глубокой переработке сельскохозяйственной продукции и дальнейшему развитию пищевой промышленности» и № ПП-4576 от 29 января 2020 г. «О дополнительных мерах государственной поддержки животноводческой отрасли» и других нормативно-правовых актах, касающихся данной деятельности.

